MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR O‘RTASIDAGI O‘ARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Erdonova Maxfuza Mardonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
maxfuza_erdonova@mail.ru

Annotatsiya: *Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik milliy iqtisodiyotda yuz beradigan jarayonlarning shakllanishi va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Mazkur tezisda yalpi ichki mahsulot, iste’mol, davlat xarajatlari, ishsizlik, investitsiyalar, foiz stavkasi, pul massasi va tashqi savdo ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatlarning nazariy asoslari o‘rganilgan. Ushbu bog‘liqliklar keynschilik yondashuvi, IS–LM modeli va Okun qonuni asosida tizimlashtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Keyns nazariyasi, IS–LM modeli, Okun qonuni, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot, ishsizlik.*

Abstract: *The interrelationships among macroeconomic indicators determine the formation and development trends of economic processes in the national economy. This thesis examines the theoretical foundations of the relationships among gross domestic product, unemployment, investment, interest rates, money supply, government expenditure, and foreign trade indicators. These relationships are systematized within the framework of the Keynesian approach, the IS–LM model, and Okun’s law.*

Keywords: *Keynesian approach, IS–LM model, Okun’s law, macroeconomic indicators, gross domestic product, unemployment.*

Аннотация: *Взаимосвязи между макроэкономическими показателями определяют формирование и направления развития экономических процессов в национальной экономике. В данном тезисе исследованы теоретические основы взаимосвязей между валовым внутренним продуктом, безработицей, инвестициями, процентной ставкой, денежной массой, государственными расходами и показателями внешней торговли. Данные взаимосвязи систематизированы в рамках кейнсианского подхода, модели IS–LM и закона Оукена.*

Ключевые слова: *кейнсианский подход, модель IS–LM, закон Оукена, макроэкономические показатели, валовой внутренний продукт, безработица.*

KIRISH

Bugungi davrda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarning nazariy asoslarini o‘rganish iqtisodiy jarayonlarning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Turli iqtisodiy nazariya va konsepsiyalarda ushbu bog‘liqliklarning mazmuni, yo‘nalishi hamda ta’sir mexanizmlari turlicha izohlangan. Mazkur nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish esa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda baholash va ularni keyingi empirik tahlil qilish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi. Xususan, keynschilik nazariyasi yalpi talab, ishlab chiqarish, bandlik, investitsiyalar va davlat xarajatlari o‘rtasidagi munosabatlarni asoslab bersa, IS–LM modeli tovar va pul bozorlari muvozanati orqali foiz stavkasi, investitsiyalar hamda milliy daromad o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Okun qonuni esa iqtisodiy o‘sish va ishsizlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiradi. Buni quyidagi 1-jadvalda ham ko’rishimiz mumkin:

1-jadval. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar o’rtasidagi bog’liqlikni ifodalovchi nazariy yondashuvlar va modellar[9]

	Nazariya/model	Asosiy foydalaniladigan ko’rsatgichlar	Asosiy bog’liqlik
1	Keynschilik yondashuvi	YaIM (ishlab chiqarish), iste’mol, investitsiya, davlat xarajatlari, eksport, import, bandlik/ishsizlik	Yalpi talab →Ishlab chiqarish (YaIM)→bandlik
2	IS-LM modeli	YaIM (milliy daromad), foiz stavkasi, investitsiya, iste’mol, davlat xarajatlari, pul massasi/pul taklifi, pulga talab	Tovar bozori+pul bozori→YaIM va foiz stavkasining muvozanati
3	Okun qonuni	Real YaIM (yoki YaIM o’sish sur’ati), ishsizlik darajasi	YaIM o’sishi ↑ →ishsizlik pasayishi↓

Mazkur nazariy yondashuvlar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni alohida emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi yagona iqtisodiy tizim doirasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Keyns nazariyasining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, yalpi talab (aggregate demand) uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat xarajatlarining yig‘indisi sifatida qaraladigan talab iqtisodiyotdagi eng muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

[9] Muallif tomonidan tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan.

Keyns, shuningdek, erkin bozorda iqtisodiyotni avtomatik tarzda to‘liq bandlik holatiga olib keluvchi o‘z-o‘zini muvozanatlashtirish mexanizmi mavjud emasligini ta’kidlagan. Shu sababli keynschi iqtisodchilar to‘liq bandlik va narxlar barqarorligini ta’minlash maqsadida davlatning iqtisodiy siyosat orqali aralashuvini asoslaydilar. Ushbu nazariyada yalpi talabning yetarli bo’lmasligi yuqori ishsizlikning uzoq vaqt davom etishiga olib kelishi mumkin ekanligi haqida ta’kidlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bir-biridan mustaqil ravishda emas, balki yalpi talab va yalpi ishlab chiqarish mexanizmi orqali o‘zaro bog‘liq holda shakllanadi. Yalpi ishlab chiqarish hajmi iste’mol, investitsiyalar, davlat xarajatlari va sof eksportdan tarkib topib, ushbu komponentlardagi o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sish va bandlik dinamikasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, investitsiyalar hajmi foiz stavkalari bilan bog‘liq bo‘lib, foiz stavkalarining pasayishi investitsion faollikni rag‘batlantirish va shu orqali yalpi talab hamda ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beradi. Davlat xarajatlarining o‘sishi esa yalpi talabni bevosita kengaytirib, multiplikator mexanizmi orqali ishlab chiqarish va bandlikka dastlabki xarajat o‘zgarishidan kattaroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, yalpi talabning haddan tashqari kengayishi narxlar darajasi va inflyatsion jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi sektor nuqtayi nazaridan eksport va import o‘rtasidagi farq sof eksport bo’lib, u yalpi ishlab chiqarishning tarkibiy elementi sifatida iqtisodiy faollik bilan bevosita bog‘liqdir. Demak, keynscha yondashuv YaIM, investitsiyalar, foiz stavkalari, davlat xarajatlari, bandlik, inflyatsiya hamda eksport-import ko‘rsatkichlarini yagona o‘zaro bog‘liq makroiqtisodiy tizim doirasida tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi [1].


Yuqorida ta’riflangan Keyns makroiqtisodiy nazariyasi shuningdek matematik va grafik ko’rinishlarda ham, ya’ni IS-LM modeli bilan ifodalanadi. IS-LM modeli qisqa muddatli davrga tovarlar va pul bozorida birgalikda muvozanat o’rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Garchand iste’mol va investitsion tovarlarga talab turli omillar bilan belgilansa-da, IS-LM modelida ular bir butun deb qaraladi [2]. IS–LM modeli real va monetar sektorlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalab, milliy daromad (ishlab chiqarish hajmi) hamda foiz stavkasining bir vaqtda shakllanish mexanizmini tushuntiradi. IS egri chizig‘i tovarlar bozoridagi muvozanatni aks ettirib, foiz stavkasining pasayishi investitsiyalarni rag‘batlantirishi va multiplikativ ta’sir orqali milliy daromadning oshishiga olib kelishini ko‘rsatadi. LM egri chizig‘i esa pul bozoridagi muvozanatni ifodalab, daromadning ortishi pulga bo‘lgan talabni kuchaytirishi va pul taklifi o‘zgarmagan sharoitda foiz stavkasining ko‘tarilishiga sabab bo‘lishini nazarda tutadi. Shu tariqa, IS va LM egri chiziqlarining kesishish

nuqtasi tovarlar va pul bozorida bir vaqtning o‘zida muvozanatni ta’minlovchi daromad hamda foiz stavkasining muvozanat darajasini belgilaydi [3].

1-rasmga ko’ra, IS-LM modeli ikki o’qdan iborat, ular [4]:

-Y o’qi (r): foiz stavkasi (Interest rate);

-X o’qi (Y): milliy daromad yoki YIM (Aggregate Income/ GDP).



1-rasm. IS va LM modeli egri chiziqlari kesishmasidagi makroiqtisodiy muvozanati [5]

IS va LM egri chizmalari kesishgan nuqta (E) – bu tovar bozori va pul bozori bir vaqtning o’zida muvozanatda bo’lgan yagona holatni ko’rsatadi. Bu nuqtada quyidagi ko’rsatkichlar shakllangan:

r* - muvozanatli foiz stavkasi;

Y*- muvozanatli milliy daromad darajasi.

Ushbu modelning davlat siyosatidagi ahamiyati sifatida davlatning fiskal rag’batlantirish va monetar rag’batlantirish iqtisodiy choralarini iqtisodiy simulyatsiya qilish uchun eng qulay vosita ekanligini ta’kidlash joiz.

Shunday qilib, IS–LM modeli fiskal va monetar siyosatdagi o‘zgarishlarning foiz stavkasi hamda muvozanatli ishlab chiqarish hajmiga ta’sirini nazariy jihatdan tushuntirib beradi. Biroq ishlab chiqarish hajmidagi mazkur o‘zgarishlar iqtisodiyotning boshqa muhim ko‘rsatkichi - mehnat bozori holatiga, xususan, ishsizlik darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. YaIM (ishlab chiqarish) dinamikasi va ishsizlik darajasi o‘rtasidagi ushbu empirik bog‘liqlik iqtisodiy nazariyada Okun qonuni orqali ifodalanadi [6].

Okun qonuni (Okun’s Law) – bu YaIM o’sish sur’atlari va ishsizlik darajasi o’rtasidagi teskari chiziqli bog’liqlikni ifodalovchi empirik makroiqtisodiy

qonuniyatdir. Okun qonuniga ko’ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) haqiqiy hajmining pasayishi ishsizlikning ortishiga olib keladi. Nazariyada uning 2 ta asosiy matematik modellari farqlanadi [7]:

1) O‘sish sur’ati modeli (growth-rate version).

Mazkur model ishsizlik darajasidagi o‘zgarishni real YaIMning o‘sish sur’ati haqidagi ma’lumotlar asosida ko‘rsatadi :

$$\Delta U = a - b \cdot (\Delta Y/Y) \qquad (1)$$

Bunda:

ΔU - joriy va o‘tgan davrdagi ishsizlik darajasi o‘rtasidagi farq (%);

$(\Delta Y/Y)$ - real YaIMning o‘sish sur’ati (%);

a - ishsizlik o‘zgarmasligi uchun zarur bo‘lgan YaIM o‘sish sur’ati;

b - Okun koeffitsiyenti, ya’ni YaIM o‘sishining ishsizlikka qanchalik ta’sir qilishini ko‘rsatuvchi sezgirlik koeffitsiyenti.

2) Uzilish/bo’shliq modeli (gap version).

Mazkur model potensial YaIM (to‘liq bandlikdagi YaIM) va haqiqiy YaIM o‘rtasidagi farqni davriy ishsizlik (haqiqiy ishsizlik va tabiiy ishsizlik o‘rtasidagi farq) bilan bog‘laydi :

$$(Y* - Y)/Y* = c \cdot (U - U*) \qquad (2)$$

Bunda:

Y - haqiqiy YaIM;

$Y*$ - potensial YaIM (iqtisodiyotning to‘liq quvvatdagi imkoniyati).

Okun koeffitsiyentining amaliy ma’nosi ishsizlikning 1 % ga o’zgarishi YaIMning 2-3 % ga o’zgarishiga tengligi isbotlangan [8].

XULOSA

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlardan xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik murakkab va ko‘p yo‘nalishli iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi. Shu bois alohida makroiqtisodiy ko‘rsatkichdagi o‘zgarishni boshqa ko‘rsatkichlardan ajratilgan holda emas, balki ularning o‘zaro ta’siri va uzviy bog‘liqligi doirasida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Ko‘rib chiqilgan nazariyalar ushbu bog‘liqliklarning mavjudligi, yo‘nalishi va iqtisodiy mexanizmlarini tushuntirish uchun nazariy asos yaratadi, biroq ularning kuchi va xususiyati muayyan mamlakatning iqtisodiy sharoiti hamda tadqiqot davriga qarab farqlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahan, S. What Is Keynesian Economics? / S. Jahan, A. S. Mahmud, C. Papageorgiou // Finance & Development. — 2014. — Vol. 51, no. 3. — P. 53–54.

2. Karieva, L. S. Makroiqtisodiyot : darslik / L. S. Karieva. — Toshkent, 2021.

3. Mankiw, N. G. *Macroeconomics* / N. G. Mankiw. — 9th ed. — New York : Worth Publishers,2016**.**

4. *Makroiqtisodiyot : o‘quv qo‘llanma* / N. M. Mahmudov, A. B. Shakarov, X. A. Ulashev, J. A. Shakarov. — Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2021. — 318 b.

5. *Makroiqtisodiyot : o‘quv qo‘llanma* / N. M. Mahmudov, A. B. Shakarov, X. A. Ulashev, J. A. Shakarov. — Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2021. — 318 b.

6.Unemployment Dynamics during Recessions and Recoveries: Okun’s Law and Beyond // *World Economic Outlook: Rebalancing Growth*. — Washington, DC : International Monetary Fund, 2010. — Ch. 3.

7. Okun, A. M. Potential GNP: Its Measurement and Significance / A. M. Okun // *Proceedings of the Business and Economic Statistics Section of the American Statistical Association*. — 1962.

8. Abel, A. B. *Macroeconomics* / A. B. Abel, B. S. Bernanke, D. Croushore. — 10th ed. — Pearson, 2020.